

SUD TIZIMIDA KORRUPSIYAVIY XAVF-HATARLARNI OLDINI OLISH MASALALARI

Raxmonov Asadbek Abdulaxat o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti Korruptsiyaga qarshi
kurash va komplayens nazorat mutaxassisligi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174720>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi sud tizimida korrupsiyaviy xavf-hatarlarni oldini olish, ularga qarshi kurashish va korrupsion harakatlarga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan hamda ularni keltirib chiqarayotgan omillarini bartaraf etish va ularga qarshi faol kurash olib borishda amalga oshirilayotgan ishlar, shuningdek, sud tizimida ichki nazorat mexanizmlarining zaifligi va sud xodimlari uchun yetarlicha iqtisodiy rag'batlarning yo'qligi kabi muammolar tadqiq etiladi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Sud tizimida korrupsiyaviy xavf-hatarlarni oldini olish bo'yicha muhim huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda, ushbu maqolada sud tizimining mustaqilligini ta'minlash uchun dunyo hamjamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashda qanday chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi bilan bog'liq masalalar muhokama qilinadi. Shuningdek, olib borilgan o'rganishlar natijasida sud tizimining mustaqilligini ta'minlash, ochiqlik va shaffoflikni oshirish, sud xodimlari uchun etika va kasbiy o'quv dasturlari joriy qilish, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari nazoratini kuchaytirish bo'yicha fikrlar va mulohazalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Sud tizimida korrupsiyaviy xavf-hatarlar, sudyalarning maqomi, sud, sud tizimidagi shaffoflik, korrupsion holatlar, sud tizimida ichki nazorat, sudyalarning mustaqilligi.

ISSUES OF PREVENTION OF CORRUPTION RISKS IN THE JUDICIAL SYSTEM

Abstract. This article explores how the work being done to prevent and combat corruption risks in the judicial system of the Republic of Uzbekistan, to eliminate and actively combat the factors that may cause and cause corrupt actions, as well as problems such as the weakness of internal control mechanisms in the judicial system and the lack of sufficient economic incentives for judicial employees. Currently, important legal reforms are being implemented in the judicial system of the Republic of Uzbekistan to prevent corruption risks, this article discusses issues related to what measures are being taken in the world community to combat corruption to ensure the independence of the judicial system. Also, as a result of the studies conducted, opinions and considerations are presented on ensuring the independence of the judicial system, increasing openness and transparency, introducing ethics and professional training programs for judicial employees, and strengthening control over civil society institutions and the media.

Keywords: Corruption risks in the judicial system, status of judges, court, transparency in the judicial system, corruption cases, internal control in the judicial system, independence of judges.

ВОПРОСЫ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ КОРРУПЦИОННЫХ РИСКОВ В СУДЕБНОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация. В данной статье исследуется, проводится работа, проводимая в судебной системе Республики Узбекистан по предотвращению, борьбе и устранению факторов, которые могут стать причиной коррупционных действий, и активная борьба с ними, а также такие судебные проблемы, как слабость внутренней системы. В системе изучаются механизмы контроля и отсутствие достаточных экономических стимулов для должностных лиц суда. В настоящее время в судебной системе Республики Узбекистан проводятся важные правовые реформы для предотвращения коррупционных рисков, в данной статье рассматриваются вопросы, связанные с тем, какие меры реализуются в борьбе с коррупцией в международном сообществе для обеспечения независимости судебной власти. судебная система. Также в результате проведенных исследований даны мнения и комментарии по вопросам обеспечения независимости судебной системы, повышения открытости и прозрачности, внедрения программ этики и профессиональной подготовки работников судов, усиления контроля институтов гражданского общества и средств массовой информации.

Ключевые слова: Коррупционные потребности в судебной системе, статус судей, суд, партнерство в судебной системе, коррупционные процессы, внутренний контроль в судебной системе, независимость судей.

Hozirda butun dunyodagi davlatlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, barchani tashvishga solayotgan korrupsiya xavfi ortib bormoqda. Korrupsiya – siyosat va davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy xavfli xodisa bo'lib, davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo'lgan yoki ularga tenglashtirilgan shaxslarning noqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o'z maqomi va u bilan bog'liq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek, bu boylik imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishida ifodalanadi¹. Taraqqiyotning yangi bosqichida O'zbekiston uchun korrupsiyaning har qanday shakldagi ko'rinishi islohotlar shiddatini va samarasini susaytirishi mumkin bo'lgan illat hisoblanadi. Darhaqiqat, Davlatimiz rahbarining 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va

¹ <https://uza.uz/oz/posts/korrupsiya-jamiyat-rivojiga-xavf-soluvchi-ijtimoiy-xavfli-ho-31-07-2020>

O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida "Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaktsinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz", deb bejizga ta'kidlanmagan. Shu sababli, Yangi O'zbekistonda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar doirasida barcha sohalarda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish muhitini shakllantirish talab etiladi².

Hozirgi kunda davlat organlarida korrupsiyaviy holatlarni oldini olish va ularga qarshi keskin choralar ko'rish bo'yicha ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Garchi keskin choralar ko'rilayotgan bo'lsa ham ba'zi holatlarda korrupsiya bilan bog'liq muammolar haligacha davom etayotganligi, ayniqsa davlat hokimyatining mustaqil organi hisoblangan sud tizimida bunday holatlar yuz berayotganligi hech birimizga sir emas. Sud tizimi fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishi, nizolarni qonuniy, adolatli va holisona hal qilishi, inoyatchilikka qarshi faol kurashda adolatli qarorlar chiqarishga mas'ul organ hisoblanadi. Biroq, korrupsiya sud tizimidagi xodimlarning ayniqsa, sudyalarning adolat va qonunga sodiqligini zaiflashtirib, adolat mezonlarini buzadi. Mazkur jarayonda sudyalarning pora olish natijasida o'z qarorlarini moddiy manfaatlar asosida qabul qilish holatlari yuzaga kelmoqda. Natijada sudyalar nafaqat inson huquqlarini, balki adolat tamoyillarini ham buzib, jamiyatda fuqarolarning huquqiy himoya tizimi hisoblangan sud hokimyatiga bo'lgan ishonchini yo'qotmoqda. Sud tizimida korrupsiyaviy holatlarni avj olishi oqibatida sud qarorlari qonun ustivorligi asosida emas, balki moddiy manfaat yoki boshqa ta'sirli vositalar orqali hal qilinishiga olib keladi. Natijada, davlatda qonun ustivorligi, adolatlilik prinsipi o'rniga fuqarolarning qonunlarga amal qilish istagi susayib, ular o'z huquqlarini o'z qo'li bilan ta'minlashga intilishi ortadi. Korrupsiya sud tizimida bir nechta ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bular: sud jarayoniga boshqa davlat organlarining aralashuvi, ish hajmining oylik maosh bilan mutanosib emasligi, sud jarayonlarida shaffoflikning yetishmasligi, tashqi ta'sir va siyosiy bosim, kabi bir qancha omillarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash va sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish yuzasidan bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-dekabrda qabul qilingan PF-6127-sonli Farmoniga asosan, sudlarda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni tizimli ravishda bartaraf qilish va unga qarshi kurashish samaradorligini oshirish borasida:

² <https://cbu.uz/uz/anti-corruption/>

- Prezident tomonidan tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan, faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradigan Kengash raisining o'rinbosari lavozimi joriy qilindi. Shu munosabat bilan Sudyalar oliy maktabining Ilmiy va axborot-tahliliy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimi tugatildi;
- Sudyalar daxlsizligini ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish bo'yicha sud inspeksiyasi tuzildi (Sudyalar daxlsizligini ta'minlash bo'yicha sud inspeksiyasi negizida);
- Sudyalar kasbiy tayyorgarligini tashkillashtirish shu'basi tugatildi;
- matbuot xizmati va birinchi bo'lim (OAV bilan hamkorlik qilish shu'basi negizida), shuningdek axborot-tahlil, murojaatlar bilan ishlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va axborot xavfsizligini ta'minlash tuzilmalari hamda arxiv va devonxona (ijro apparati negizida) tashkil etildi;
- Kengashga kelib tushayotgan shikoyatlarni umumlashma tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish borasida sudyalar malaka hay'atlari bilan birgalikda aniq choralar belgilash vazifasi yuklandi;
- sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishdagi faoliyatini rag'batlantirish yo'lga qo'yiladi, «Ibratli sudya» mukofoti, odil sudlovni amalga oshirishda uzoq yillar samarali mehnat qilib pensiyaga chiqqan sudyalar uchun «Sud faxriysi» ko'krak nishoni joriy etildi;
- Kengash huzurida jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi Sudyalar klubi tashkil etildi. Uning doimiy mas'ul a'zolari tarkibi ko'p yillik ish tajribasiga, chuqur bilim va yuksak obro'e'tiborga ega bo'lgan amaldagi va faxriy sudyalar orasidan shakllantirildi. Shu bilan birga, klub huquq normalarini to'g'ri qo'llash bo'yicha tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan maslahatlar hamda sudyalarning odob-axloq qoidalarini muayyan vaziyatlarda qo'llanilishi yuzasidan so'rovlariga tushuntirishlar berish vakolatiga ega bo'ldi³.

Mazkur islohotlar sud tizimida korrupsiyaviy xavf-hatarlarni oldini olishda mukammal chora-tadbirlar desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Ma'lumot o'rnida aytishimiz joizki, hozirgi kunda dunyo hamjamiyatida korrupsiyaga qarshi kurash borasida yetakchi o'rinlarni egallab kelayotgan davlatlar hisoblangan Finlandiya va Singapur tajribasi nafaqat sud tizimimizga, balki butun boshqaruv tizimiga tadbiq etish korrupsiyaviy xavf-hatarlarni oldini olish va unga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkinligini keltirib o'tishimiz lozim. Singapur va Finlyandiyada sud tizimida korrupsiyani oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan samarali chora-tadbirlar uzoq muddatli va puxta

³https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/sud_tizimi_korrupciya_hoлатlarining_olди_olinadi_ochiqlik_va_shaffoflik_taminlanadi

rejalashtirilgan strategiyalarga asoslanadi. *Singapurda* Korrupsiyaga Qarshi Tergov Byurosi (*Corrupt Practices Investigation Bureau, CPIB*) korrupsiya bilan kurashda yetakchi o'rinda turadi. *CPIB* boshqa davlat organlaridan mustaqilligi va keng vakolatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari davlat idoralarida, shu bilan birga xususiy sektorda ham korrupsiya holatlarini qat'iy nazorat qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi ahamiyatlidir.

Shuningdek, Singapurda davlat xizmatchilarining ish haqi yuqori bo'lganligi, poraxo'rlikka qarshi iqtisodiy rag'batlarning yetarlicha ekanligi korrupsiaviy holatlarni juda ham kam uchrashini anglatib, bu mazkur davlatning korrupsiyadan holi davlat sifatida yuqori o'rinni egallashida muhim omillardan biri hisoblanadi. *Finlyandiyada* haqida so'z yuritilganida, korrupsiyaga qarshi kurashda eng muhim omil sifatida aholi va davlat hokimiyati o'rtasidagi yuqori darajadagi shaffoflik va ulardagi huquqiy ong va madaniyatning yuksakligi bilan boshqa davlatlardan ajralib turadi. Finlyandiya hukumatining korrupsiyaga qarshi faol chora-tadbirlaridan asosini jamiyatda ochiqlik tamoyillarini targ'ib qilishi, ijtimoiy halollik prinsiplarining ustuvorligi, yoshlarga bu bo'yicha ta'lim va tarbiyani kuchaytirish orqali kelajak avlodni ham ijtimoiy halol hayot tarziga o'rgatish va buning natijasida jamiyatda korrupsion holatlarni oldini olish mumkinligi tashkil etadi. Shu bilan bigra mahalliy aholi orasida qonunga itoat qilish va davlatga bo'lgan ishonch yuqori bo'lib, buning natijasi korrupsiya xavfini keskin minimallashtiradi.

Xulosa o'rnida yuqoridagilardan kelib chiqib, muayyan mulohazalar bildirib o'tilishi mazkur maqola yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar masalalariga yanada oydinlik kiritishi shubhasizdir. Sudyalar tizimida korrupsiyaviy xavf-hatarlarni oldini olish choralarini muqobil darajada yanada kuchaytirish O'zbekistonda sud tizimiga bo'lgan ishonchi oshirishga xizmat qiladi. Sud tizimining, xususan sudyalarning qarorlar qabul qilishda mustaqilligining kafolatlari qamrovi kengaytirilishi va yanada mustahkamlanishi sud tizimi faoliyati samaradorligini hamda sud va sudyalar xolisligi darajasini, ishni ko'rishning ochiqligi va sifatini hamda chiqarilayotgan sud qarorlarining qonuniy, adolatli va eng asosiysi asosli bo'lishiga zamin yaratadi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda quyidagilarni sud tizimida korrupsiyaviy xavf-hatarlarni oldini olishda va korrupsiyaviy holatlarni kamaytirishda tavsiyaviy harakterdagi taklif va mulohaza sifatida keltirib o'tishni lozim deb topdik. **Birinchidan**, sud tizimi xodimlarining oylik maoshlarini ko'paytirish orqali ularning yashash muhitini yaxshilash va ishdan qoniqish hissini uyg'otish, **ikkinchidan**, jamiyatda fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, korrupsioan holatlar qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligini tushunib yetishi uchun yoshlarni maktab davridan boshlab mazkur illatni yo'q qilish qanchalik muhim ekanligiga o'rgatish kerak. Shuningdek, sud tizimida korrupsiyani oldini olishning samarali chora-tadbirlari sifatida quyidagilarni amalga oshirish muhim deb hisoblaymiz:

- Sudyalar va sud tizimi xodimlari uchun rag'batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- Sud jarayonlarida shaffoflikni oshirish hamda ularga raqamli texnologiyalarni joriy etish, xususan, Sud jarayonlarini raqamlashtirish bilan birga onlayn platformalarni joriy qilish orqali shaffoflikni ta'minlash;
- Fuqarolarni sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash uchun ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni kuchaytirish kabilar.

REFERENCES

1. <https://uza.uz/oz/posts/korrupsiya-jamiyat-rivojiga-xavf-soluvchi-ijtimoiy-xavfli-ho-31-07-2020> ;
2. <https://cbu.uz/uz/anti-corruption/>;
3. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/sud_tizimi_korruptsiya_holatlarining_oladi_ochiqlik_va_shaffoflik_taminlanadi;
4. <https://direct.mit.edu/daed/article/147/3/202/27206/Combating-Corruption-in-Asian-Countries-Learning>;
5. <https://www.nortonrosefulbright.com/en/knowledge/publications/74306523/getting-the-deal-through---anti-corruption-regulation-in-singapore-2016>;